BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI VA UNING GNOSEOLOGIK TABIATI

Xolboyeva Ra’no Xolboy qizi
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
Xolboyevarano300@gmail.com

Annotatsiya. *Tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni gnoseologik va ijtimoiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Qadriyatning tashqi ijtimoiy norma holatidan shaxsiy ma’noga aylanish bosqichlari, kichik maktab yoshining sensitivligi va jarayonning ijtimoiy zaruriyati asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, gnoseologik tabiat, internalizatsiya, shaxsiy ma’no, sensitiv davr, ijtimoiy-pedagogik zaruriyat.*

Аннотация. *В тезисах с гносеологической и социально-педагогической позиций анализируется процесс формирования национальных ценностей у младших школьников. Обосновываются этапы превращения ценности из внешней социальной нормы в личностный смысл, сензитивность младшего школьного возраста и социальная необходимость процесса.*

Ключевые слова: *национальные ценности, гносеологическая природа, интериоризация, личностный смысл, сензитивный период, социально-педагогическая необходимость.*

Abstract. *The paper analyses the formation of national values in primary school pupils from epistemological and socio-pedagogical perspectives. It substantiates the stages through which a value turns from an external social norm into a personal meaning, the sensitivity of the younger school age, and the social necessity of the process.*

Keywords: *national values, epistemological nature, internalization, personal meaning, sensitive period, socio-pedagogical necessity.*

Kirish. Globallashuv va axborot oqimlari kesishgan sharoitda yosh avlodning milliy-ma’naviy barqarorligini ta’minlash zamonaviy ta’lim nazariyasining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. T. Lickona tadqiqotlarida an’anaviy qadriyatlarning zamonaviy maktabdagi roli didaktik tamoyillar asosida ochib berilgan bo‘lsa-da , boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar va zamonaviy didaktik yondashuvlarning dialektik uzviyligini ta’minlovchi yaxlit yondashuv maxsus tadqiqot obyekti sifatida

o‘rganilmagan. Mazkur tezisning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishning gnoseologik tabiati va ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini nazariy jihatdan asoslashdan iboratdir.

Asosiy qism. Shaxs kamolotining dastlabki va eng muhim poydevori hisoblangan boshlang‘ich ta’lim bosqichida milliy qadriyatlarni shakllantirish muammosi o‘zining murakkab gnoseologik tabiati hamda kechiktirib bo‘lmaydigan ijtimoiy-pedagogik zaruriyati bilan ajralib turadi. Falsafiy-pedagogik nuqtai nazardan “qadriyat” tushunchasining gnoseologik tabiati obyektiv borliqdagi ijtimoiy-madaniy hodisalarning inson subyektiv olami orqali aks etilishi va shaxsning ichki e’tiqodiga aylanish jarayonini ifodalaydi. Axloqiy-ma’naviy me’yorlarning o‘zlashtirilishi shunchaki axborotni xotirada saqlash emas, balki chuqur emotsional-kognitiv kechinma sanaladi.

L.S. Vygotskiy asoslagan madaniy-tarixiy nazariyaga ko‘ra, har qanday ijtimoiy-madaniy funksiya bolaning rivojlanishida ikki marta namoyon bo‘ladi: dastlab ijtimoiy munozara maydonida , so‘ngra individual tafakkur darajasida. Bundan kelib chiqadiki, milliy qadriyatlar dastlab maktab, oila va mahalliy jamoatchilik muhitida obyektiv ijtimoiy norma sifatida mavjud bo‘ladi va faqat o‘qituvchi tomonidan maqsadli tashkil etilgan didaktik jarayon orqaligina bola psixikasining ichki regulyatoriga, ya’ni mustaqil xulq-atvor mezoniga aylanadi. D.A. Leontyev ta’kidlaganidek, qadriyat obyektdan subyektga mexanik tarzda “Yuqmaydi”, u faqat faoliyat motivlari va chuqur emotsional kechinmalar orqali shaxsiy ma’nolar tizimiga integratsiya qilinadi . Shu sababli “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyilini o‘quvchi darslik matnini o‘qish orqali emas, rolli o‘yinlar, kichik guruh loyihalari va hayotiy muammoli vaziyatlarni yechish kabi interfaol metodlar yordamida shaxsiy tajribasidan o‘tkazgandagina chinakam kognitiv o‘zlashtirish sodir bo‘ladi.

Kichik maktab yoshida bu jarayon axloqiy-kognitiv taraqqiyot qonuniyatlariga tayanadi. L. Kohlbergning nazariyasiga muvofiq, 7–10 yoshli bolalar axloqiy tafakkurning prekonvensional bosqichidan konvensional bosqichiga o‘tadi. Mazkur kognitiv transformatsiya pallasi milliy qadriyatlarni obyektiv ijtimoiy fenomen holatidan shaxsning subyektiv ichki ishonchiga aylantirish uchun eng qulay (sensitiv) davr hisoblanadi. J. Bruner madaniy ta’lim konsepsiyasida bolaning dunyoqarashi milliy narrativlar, til va urf-odatlar vositasida konstruksiya qilinishini isbotlagan . Bu g‘oyani boshlang‘ich ta’limga tatbiq etsak, har qanday zamonaviy innovatsion bilim o‘quvchining milliy o‘zligiga begona didaktik tuzilma sifatida emas, tabiatga ehtiyotkorona munosabat, halol mehnat va o‘zaro yordam kabi asriy

qadriyatlar bilan uzviy bog‘langan holda taqdim etilgandagina kognitiv dissonans holatining oldi olinadi.

Ijtimoiy-pedagogik zaruriyat nuqtai nazaridan, chegarasiz raqamli texnologiyalar va ommaviy madaniyatning nazoratsiz oqimi kuchaygan sharoitda milliy qadriyatlar tizimi yosh avlodni ma’naviy qashshoqlashuvdan va yot g‘oyalar ta’siridan himoya qiluvchi protektiv qobiq vazifasini o‘taydi .Bu ehtiyoj zamonaviy o‘qituvchidan ming yillik qadriyatlarni alfa avlodi osongina qabul qiladigan raqamli, vizual va evristik formatlarda taqdim eta bilish kompetensiyasini talab etadi.

Tahlil natijalari qadriyat shakllanishining gnoseologik zanjirini belgilash imkonini berdi: tashqi ijtimoiy norma, uni faoliyatda qo‘llash, emotsional-qadriyatli kechinma, shaxsiy ma’noga aylanish va o‘z-o‘zini anglash refleksiyasi. Zanjirning har bir bo‘g‘ini ta’lim mazmunida ta’minlanmasa, qadriyat yodlangan bilim darajasida qoladi, o‘quvchi xulq-atvorining ichki regulyatoriga aylanmaydi. Bundan tashqari, sensitiv davr omili va madaniy kontekstuallashtirish talabi qadriyatli mazmunni fanlararo integratsiyalash zarurligini asoslaydi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishning gnoseologik tabiati o‘tmish faktlarini yodlash emas, uzluksiz, dinamik va konstruktiv qadriyat yaratish jarayonidir. Uning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati o‘sib kelayotgan shaxsni axborotlashgan globallashuv makonida axloqiy jihatdan barqaror, kognitiv jihatdan moslashuvchan va milliy identikligiga ega fuqaro sifatida sotsializatsiya qilish ehtiyojidan bevosita kelib chiqadi. Aniqlangan qonuniyatlar dissertatsiyada ishlab chiqilgan pedagogik-konseptual modelning nazariy poydevorini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991. – 432 p.

2. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Смысл, 2005. – 1136 с.

3. Леонтьев Д.А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. – М.: Смысл, 2003. – 487 с.

4. Kohlberg L. The Psychology of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1984. – 729 p.

5. Bruner J. The Culture of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1996. – 240 p.

6. Safarova R.G. va boshq. O‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish texnologiyalari. – Toshkent: O‘zPFITI, 2018. – 142 b.